



TEXNOPARK VA SANOAT KLASSTERLARI FAOLIYATINING MINTAQAVIY IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Samiyev Ulug‘bek Iskandarovich

<https://orcid.org/0009-0006-6820-0502>

Samiyev1106@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan texnopark va sanoat klasterlarining mintaqaviy iqtisodiy o‘rishga ta’siri statistik va ekonometrik modellar asosida yoritiladi. Tadqiqotda innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya oqimlari va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar statistik ma’lumotlar asosida tavsiflanadi. Texnopark va klasterlarning hududiy iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati hamda ularning rivojlanish tendensiyalari ekonometrik yondashuvlar nuqtayi nazaridan bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik sanoat zonalari, iqtisodiy samaradorlik, statistika, ekonometrika, hududiy iqtisodiyot, investitsiyalar, bandlik ko‘rsatkichlar, institutsional omillar.

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, ichki bozorni mustahkamlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi hamda innovatsion mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirish mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan strategik hujjatlar va qarorlar milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, hududiy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, sanoatning mintaqaviy rivojlanishida texnoparklar, kichik sanoat zonalari va sanoat klasterlari muhim infratuzilma elementlari sifatida belgilangan.



Prezident tomonidan 2025–2026 yillarga mo'ljallangan qarorlar majmui sanoatning hududiy rivojlanishini jadallashtirish maqsadida qabul qilingan. Jumladan, 2025-yil 10-oktabrda imzolangan farmonda respublika hududlarida sanoat salohiyatini faollashtirish va eksportni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tasdiqlangan bo'lib, unda 2025–2026 yillar davomida texnologik yuqori darajadagi loyihalar sonini oshirish, mintaqaviy sanoat ulushini 45% ga yetkazish va har bir tuman va shaharda besh nafar "o'sish nuqtalari"ni yaratish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yil holatiga 31 ta maxsus iqtisodiy zona, 417 ta kichik sanoat zonasi, 32 ta texnopark va 353 ta sanoat klasteri faoliyat yuritmoqda. Ularda jami 8 mingdan ortiq korxona faoliyat olib boradi, shuningdek, bu infratuzilmalar sanoat ishlab chiqarish hajmining sezilarli qismini tashkil etmoqda. Texnoparklar va klasterlar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish hamda bandlikni oshirishda qo'shimcha mexanizm vazifasini o'taydi. Bu strukturalar orqali hududiy sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ortib borayotgani, ularning mintaqaviy YaHMga ta'siri hisoblanadigan ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli ulush yaratayotgani milliy statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Tadqiqotning vazifasi shundan iboratki, texnopark va sanoat klasterlarining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri statistik va ekonometrik usullar yordamida aniqlansun, Qashqadaryo viloyati misolida ularning iqtisodiy samaradorligi hamda o'sish tendensiyalari tahlil etilsin.

Hududiy raqobatbardoshlik ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, investitsiya oqimini rag'batlantiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va innovatsion faoliyatni tezlashtiradi.

1-rasm

Hududiy raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Mazmuni	Natijasi
Ishlab chiqarish hajmi	Klaster korxonalari umumiy mahsulot hajmi	Bozor ulushi ortadi



Investitsiya oqimi	Ichki va tashqi kapital jalbi	Yangi texnologiyalar
Innovatsion faoliyat	R&D, startaplar, texnoparklar	Innovatsion ustunlik
Eksport salohiyati	Xorijiy bozorga chiqish darajasi	Valyuta tushumlari ortadi

Barqaror rivojlanish istiqbollari klasterlarning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Raqamli transformatsiya – raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.
- Yashil iqtisodiyot – energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishga o'tish.
- Ijtimoiy barqarorlik – yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash.

Hududiy klasterlarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish istiqbollari uyg'unlashgan holda mintaqa iqtisodiy tizimining mustahkamlanishini ta'minlaydi. Uzoq muddatda klasterlar innovatsion yondashuv, raqamli transformatsiya va ekologik muvozanat asosida rivojlanishi lozim.

Klasterlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni oshiradi. Bu esa texnologik innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va yangi ishlanmalarni joriy etish imkonini beradi. Qashqadaryodagi klasterlash jarayoni mahalliy resurslarni yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotga aylantirish uchun ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Klasterdagi korxonalar bir-birini qo'llab-quvvatlab, ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni oshiradi. Masalan, xom ashyo yetkazib berish, texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash yoki umumiy infratuzilma bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilishi mumkin. Bu kiritilgan investitsiyalar, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Texnoparklar va sanoat klasterlari mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda strategik ahamiyatga ega infratuzilmalar sifatida namoyon bo'ladi. Qashqadaryo viloyati misolida bu strukturalar quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi.



Xulosa qilib aytganda, texnoparklar va sanoat klasterlari Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim mexanizmi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning samaradorligi va iqtisodiy ta'siri statistika va ekonometrik modellashtirish orqali aniq baholanishi, hududiy siyosatni shakllantirish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FAYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdaqi «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdaqi PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
4. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
5. O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – «Mexnat»- 1998.;
6. Pardaev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;
7. **Norqobilova. F. A.** International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257
8. Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.
9. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich¹, Norqobilova Feruza Abdihamidovna². // Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.